



Boshlang'ich ta'limda GREEN yondashuvi asosida integrativ fikrlashni rivojlantirish usullari

Muxtoriy Mohro'yi Sodirzoda –

Farg'ona davlat universiteti doktoranti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: m_muxtoriy@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1656-1991>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida GREEN yondashuvi asosida o'quvchilarning integrativ fikrlashini rivojlantirish usullari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan yoritilgan. GREEN yondashuvining boshlang'ich ta'limdagi didaktik imkoniyatlari, o'quvchilar fikrlash faoliyatini faollashtirishdagi o'rni, fanlararo bog'lanishlar asosida integrativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi usullar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: GREEN yondashuvi, integrativ fikrlash, boshlang'ich ta'lim, fanlararo integratsiya, ekologik ta'lim, kompleks tafakkur, didaktik usullar, muammoli vaziyat, o'quv faoliyati, pedagogik texnologiya.

Методы развития интегративного мышления в начальном образовании на основе green-подхода

Аннотация. В статье с научно-педагогической точки зрения освещаются методы развития интегративного мышления учащихся в процессе начального образования на основе GREEN-подхода. Проанализированы дидактические возможности GREEN-подхода в начальном образовании, его роль в активизации мыслительной деятельности учащихся, а также методы, способствующие формированию интегративного мышления на основе межпредметных связей.

Ключевые слова: GREEN-подход, интегративное мышление, начальное образование, межпредметная интеграция, экологическое образование, комплексное мышление, дидактические методы, проблемная ситуация, учебная деятельность, педагогическая технология.

Methods for developing integrative thinking in primary education based on the green approach

Annotation. This article examines, from a scientific and pedagogical perspective, the methods for developing students' integrative thinking in the process of primary education based on the GREEN approach. The study analyzes the didactic potential of the GREEN approach in primary education, its role in activating students' thinking processes, and the methods that contribute to the formation of integrative thinking on the basis of interdisciplinary connections.

Keywords: *GREEN approach, integrative thinking, primary education, interdisciplinary integration, environmental education, complex thinking, didactic methods, problem situation, learning activity, pedagogical technology.*

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirish, integrativ darslarni tashkil etish hamda o'quvchilarning kompleks tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri o'quvchini voqelikni tahlil qiluvchi, turli hodisa va tushunchalar o'rtasidagi ichki bog'lanishlarni anglay oluvchi, yangi vaziyatlarda mustaqil xulosa chiqaruvchi faol shaxs sifatida shakllantirishdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichida fikrlashning asosiy operatsiyalari – taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibatni aniqlash, bog'lanishlarni ko'rish, muhim va ikkinchi darajali belgilarni farqlash, turli manbalardagi ma'lumotlarni bir butun mazmunga birlashtira olish ko'nikmalarini shakllantirish keyingi ta'lim bosqichlari muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan integrativ fikrlash boshlang'ich sinf o'quvchisining intellektual rivojlanishida tayanch kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Integrativ fikrlash o'quvchining biror hodisani bir nechta bilim sohalari, kuzatuvlar, hayotiy tajribalar va mantiqiy bog'lanishlar orqali anglash qobiliyatini ifodalaydi. Bunday fikrlash shakli bolaning dunyoni parchalangan tarzda emas, yaxlit va o'zaro aloqador tizim sifatida qabul qilishiga yordam beradi. Boshlang'ich ta'limda bu jarayon ayniqsa muhim, chunki ushbu davrda bola atrof-muhitni sezgi, kuzatuv, obraz, savol va amaliy faoliyat orqali o'zlashtiradi. "Integratsiya boshlang'ich maktab o'quvchilarida matematik fikrlashni kundalik hayot kontekstida kuchaytiradi"[4; Susanta]. Integrativ fikrlashni rivojlantirish uchun dars mazmuni ham, metodlari ham bolalarning tabiiy qiziqishi, kuzatuvchanligi, savol berishga moyilligi va faol tajribasiga tayanishi lozim. Ta'limda ekologik tafakkur, barqaror rivojlanish, tabiatga ongli munosabat, fanlararo integratsiya va amaliy yo'naltirilgan ta'lim g'oyalari tobora kuchayib bormoqda. GREEN yondashuvda o'quvchi tabiat hodisasini o'rganar ekan, uni tabiiy jarayon sifatida, til, o'qish, matematika, tasviriy tafakkur, kundalik turmush, axloqiy munosabat va amaliy xulq bilan bog'liq holda tahlil qiladi.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida ko'pincha darslarning predmetlar bo'yicha alohidalashuvi kuchli bo'lib, bu o'quvchining bilimlarni yaxlit tizim sifatida qabul qilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Tabiat haqidagi matn o'qish darsida muhokama qilinadi, lekin uning matematik, axloqiy, amaliy yoki ijodiy jihatlari ochib berilmaydi. GREEN yondashuvi aynan shu parchalanishni bartaraf etishga, o'quv materialini tabiiy, mantiqiy va mazmuniy bog'lanishlar asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshlang'ich ta'lim bosqichida bolada dunyoni parchalangan bilimlar yig'indisi sifatida emas, o'zaro uzviy bog'langan yaxlit tizim sifatida shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Mazkur ehtiyoj GREEN yondashuvi kabi integratsion pedagogik model va texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishni taqozo etadi. Integratsiya tushunchasi ko'p qirrali talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar integratsiyani alohida fanlar mazmunining mazmuniy, metodik va maqsadli uyg'unlashuvi sifatida izohlaydilar. Boshqa qarashlarda esa integratsiya o'quvchining tafakkur jarayonida turli tushunchalar, tasavvurlar, ko'nikmalar va faoliyat turlarini yagona muammoli vaziyat asosida birlashtirish mexanizmi sifatida sharhlanadi. Integrativ fikrlashni rivojlantirish uchun o'quv mazmunini qayta tuzishning o'zi yetarli emas. Buning uchun o'quv jarayonining maqsadi, vositalari, metodlari va natijalarini ham kompleks asosda tashkil etish talab etiladi.

"O'zbekistonda yangi o'quv islohotlari boshlang'ich bosqichda til, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha yadro kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan"[3; Sankar]. Boshlang'ich ta'limda fanlararo aloqa, tizimli fikrlash, muammoli ta'lim, kreativ tafakkur va funksional

savodxonlik tushunchalari bilan birgalikda yoritiladi. Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda fikrlash ko'proq obrazli-amaliy asosda shakllanadi, ular real hayotiy vaziyatlarni yaxshiroq qabul qiladilar va tushunadilar. Shuning uchun integrativ fikrlashni rivojlantirish uchun fan mazmunini hayot bilan bog'lash, kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, bog'lanishlarni ko'ra olish, sabab-oqibatni izohlash kabi aqliy amallarni bosqichma-bosqich faollashtirish muhim hisoblanadi. "Golubeva raqamli veb-kvestlar va interaktiv resurslar matematik darslarda funksional savodxonlik, tahliliy fikrlash, kreativ va kritik tafakkurni rivojlantirishini ko'rsatadi"[6; Golubeva]. Shu aqliy amallar keyinchalik tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilishning poydevorini tashkil etadi.

Ekologik savodxonlik, funksional o'qish savodxonligi, matematik tafakkur va san'at orqali ifodalash ko'nikmalarini o'zaro bog'lash tendensiyasi kuchayib bormoqda. GREEN yondashuvning mazmunida bir vaqtning o'zida geografik tasavvur, matn bilan ishlash, ekologik ong, san'at vositasida ifodalash va son-miqdor munosabatlarini tushunish kabi yo'nalishlar uyg'unlashadi. "Savodxonlik, son savodxonligi va raqamli savodxonlikni alohida emas, strategik bir butun tizim sifatida ko'rish tavsiya qilinadi, bu integrativ fikr g'oyasi uchun bevosita mos keladi"[2; Kennedy]. Bunday ko'p komponentli yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchisida kompleks fikrlash faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

"O'qish savodxonligiga doir ilmiy ishlarda matnni tushunish, axborotni ajratib olish, tahlil qilish va baholash jarayonlari o'quvchining yuqori darajadagi fikrlashini shakllantiruvchi omil sifatida baholanadi"[5; Winarto]. Ammo o'qish savodxonligi ko'pincha til yoki o'qish darslari doirasida chegaralab qo'yiladi. Aslida esa matn bilan ishlash geografik xarita, tabiat hodisasi, tajriba natijasi, jadval, sxema, rasm, loyihaviy topshiriq yoki matematik vaziyat bilan ham bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, integrativ fikrlashni rivojlantirishda o'qish savodxonligi vosita sifatida markaziy o'rin tutadi. O'quvchi matnni o'qibgina qolmay, uni tasvir bilan solishtiradi, muammoni tushunadi, ekologik xulosaga keladi, sonli ma'lumotlar bilan boyitadi va yakunda o'z fikrini estetik shaklda ifodalaydi.

Metodlar tizimi kompleks xarakterga ega. "San'atga asoslangan metodlar ekologik savodxonlikni chuqurlashtiradi"[1]. GREEN yondashuvi asosida integrativ fikrlashni rivojlantirish jarayoni ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan samarali va natijador bo'lishi kerak. Ular o'quvchining bilimni turli manbalardan olib, mazmunan birlashtira olishi, muammoni ko'ra bilishi, asosli xulosa chiqarishi va hayotiy vaziyatda qo'llay olishini ta'minlaydi.

"Loyihaviy ta'limda nazariy tahlil" metodi

Bu metod yordamida integrativ fikrlash, fanlararo integratsiya, ekologik ta'lim, funksional savodxonlik, san'at asosida o'qitish va matematik tafakkurga oid ilmiy-nazariy manbalar o'rganiladi, ularning o'zaro aloqasi aniqlanadi va GREEN yondashuvining pedagogik mohiyati ochib beriladi. Nazariy tahlil jarayonida turli ilmiy qarashlar qiyoslanadi, umumiy va farqli jihatlar aniqlanadi, integrativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi konseptual asoslar ajratib olinadi. Aynan shu metod tadqiqotning ilmiy poydevorini yaratadi. Loyiha asosida ishlash jarayonida o'quvchi ma'lum bir ekologik yoki ijtimoiy-amaliy muammoni hal etishga qaratilgan kichik mahsulot yaratadi. Masalan, yashil sinf burchagi, toza suvni tejash rejasi, maktab atrofi uchun mini-xarita, qayta ishlanadigan buyumlardan foydali vosita kabi loyihalar integrativ fikrlashni rivojlantiradi. Chunki loyiha davomida bola matn o'qiydi, ma'lumot to'playdi, sonli hisob-kitob qiladi, rasmini chizadi, maket tayyorlaydi, guruh bilan fikr almashadi va yakunda natijani himoya qiladi. Ushbu metod yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining integrativ fikrlash darajasi an'anaviy o'qitish hamda GREEN yondashuvi asosida tashkil etilgan o'qitish jarayonida qiyosiy ravishda o'rganiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Axborot oqimining keskin ortishi, ekologik tahdidlarning kuchayishi va ta'lim mazmunining kompetensiyaviy xarakter kasb etishi boshlang'ich ta'lim oldiga mutlaqo yangi

vazifalarni qo'ymoqda. Endilikda o'quvchini faqat o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatishning o'zi yetarli emas, uni voqelikni yaxlit ko'ra oladigan, turli bilimlar o'rtasidagi ichki bog'lanishni anglaydigan, tabiat, jamiyat va texnologiya o'rtasidagi munosabatlarni idrok eta oladigan shaxs sifatida shakllantirish zarurati kuchaydi. Aynan shu ehtiyoj boshlang'ich ta'limda integrativ fikrlashni rivojlantirish masalasini dolzarb pedagogik muammo darajasiga olib chiqmoqda. Chunki bugungi bola ertangi kunda tayyor javoblarni takrorlovchi emas, balki murakkab vaziyatlarda muammoni ko'ra oladigan, ma'lumotni saralaydigan, uni tahlil qiladigan va amaliy xulosa chiqara oladigan inson bo'lishi kerak.

GREEN yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarida integrativ fikrlashni rivojlantirish uchun qulay didaktik maydon yaratadi. Ushbu yondashuv o'quv materialini bir-biri bilan bog'liq ma'no maydoni sifatida qurishga imkon beradi. Natijada o'quvchi matn, rasm, hodisa, tajriba, hisob, savol va muhokama o'rtasidagi aloqalarni anglay boshlaydi. Bu esa bilimning mazmuniy o'zlashtirilishini ta'minlaydi. GREEN yondashuvi asosida olib borilgan darslarda o'quvchilar savollarga bir yoqlama emas, bir nechta nuqtayi nazardan javob berishga intiladi, obyekt va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni ko'proq sezadi, mustaqil taxminlar bildiradi, xulosalarini misollar bilan mustahkamlaydi. Eng muhimi, ular tabiat va hayotiy voqelikni o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'ra boshlaydi. Bu esa integrativ fikrlash rivojlanganining muhim belgisi sanaladi.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida hanuzgacha ayrim hollarda bilimlarning parchalanib berilishi, fanlarning bir-biridan ajratilgan holda o'qitilishi, o'quv topshiriqlarining real hayotdan uzilganligi kuzatiladi. Natijada o'quvchi mavzuni o'zlashtirgandek ko'rinsa-da, uni boshqa vaziyatga ko'chira olmaydi, fanlararo bog'lanishni sezmaydi va o'qigan bilimining hayotiy ahamiyatini chuqur his qilmaydi. Bu holat ayniqsa ekologik madaniyat, funksional savodxonlik, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish va ijodiy tafakkur shakllanishida seziladi. Shu nuqtai nazardan GREEN yondashuvi zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli integrativ model sifatida namoyon bo'la oladi. Mazkur yondashuv geografik tasavvur, o'qish savodxonligi, ekologik ong, san'at orqali ifodalash va matematik mantiqni yagona ta'limiy maydonda birlashtiradi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchi tafakkuri faol, ko'p manbali va ma'noli o'quv muhitidagina rivojlanadi. GREEN yondashuvi ana shunday muhitni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Chunki u ta'lim mazmuniga tabiat, kuzatuv, amaliyot, savol, axloqiy munosabat va ijodiy faoliyatni birlashtiradi. Natijada bola bilimni o'zaro bog'laydi, qo'llaydi va ma'nolaydi. Integrativ fikrlashni rivojlantirishda muhim jihat – ekologik mazmunni tafakkur operatsiyalariga aylantirishdir. Ya'ni tabiatga oid har qanday material bolaning kuzatishi, solishtirishi, savol berishi, munosabat bildirishiga sabab bo'lishi kerak. Agar darsda faqat tabiatni asrash kerak kabi tayyor xulosalar berilsa, bu tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin integrativ fikrlashni chuqur rivojlantira olmaydi. Buning uchun o'quvchi o'zi bog'lanishni kashf etishi, xulosaga o'zi kelishi lozim.

GREEN yondashuvi XXI asr ta'limining eng muhim talablaridan bo'lgan kompleks fikrlash, ekologik mas'uliyat, funksional savodxonlik va kreativ muammo yechimini boshlang'ich bosqichdan shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi bolalar kelajakda iqlim o'zgarishi, resurslardan oqilona foydalanish, texnologik yangilanish va axborot ko'pligi sharoitida yashaydi. Shunday ekan, ularning ta'limi ham kechagi model asosida emas, ertangi ehtiyojlar asosida qurilishi lozim. GREEN yondashuvi aynan mana shu ehtiyojga javob beradi, u o'quvchida tabiatga befarq bo'lmaslikni, axborotni ongli qabul qilishni, kuzatish va solishtirishni, oddiy yechimlar taklif qilishni va o'z fikrini asoslab bera olishni rivojlantiradi. GREEN yondashuvi o'quvchilarning axloqiy va hissiy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Tabiatga nisbatan mas'uliyat, jonli mavjudotlarga mehr, resurslarni qadrlash, jamoadagi o'zaro yordam, umumiy muhitga e'tibor kabi sifatlar integrativ fikrlashning mazmuniy boyishini ta'minlaydi. Chunki yaxlit fikrlash faqat aqliy operatsiyalar yig'indisi emas, balki insonning atrof-muhitga ongli munosabati bilan ham chambarchas bog'liq.

XULOSA

Boshlang'ich ta'limda GREEN yondashuvi asosida integrativ fikrlashni rivojlantirish bugungi pedagogikaning dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Mazkur yondashuv o'quvchiga atrof-muhitni, tabiat hodisalarini, kundalik hayotni va o'quv materiallarini bir-biri bilan bog'liq holda idrok etish imkonini beradi. Natijada bola bilimlarni ajratilgan bo'laklar sifatida emas, yagona ma'no tizimi sifatida anglay boshlaydi. Bu esa uning fikrlash chuqurligi, xulosa chiqarish qobiliyati, dalillash madaniyati va muammoga ko'p tomonlama yondashuvini rivojlantiradi.

GREEN yondashuvi boshlang'ich ta'limda o'quvchini bilimni bog'lovchi, sharhlovchi, amaliyotga tatbiq etuvchi va ma'nolovchi subyektga aylantiradi. Shu bois ushbu yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va dars modellari boshlang'ich ta'lim amaliyotida keng qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. European Commission, Directorate-General for Education, Youth, Sport and Culture. (2024). Enhancing education through learning for sustainability: An explorative review of broader benefits. Publications Office of the European Union. 50 P. 22-page.
2. Kennedy, E., Shiel, G., French, G., Harbison, L., Leahy, M., Ó Duibhir, P., & Travers, J. (2023). Towards a new literacy, numeracy and digital literacy strategy: A review of the literature. Department of Education, Ireland. 242 P. 124-125-pages.
3. Sankar, D. (2021). Uzbekistan education sector analysis: 2021. UNICEF / United Nations Uzbekistan. 123 B. 94, 95, 101-betlar.
4. Susanta, A., Susanto, E., Rusnilawati, R., Sumardi, H., & Ali, S. R. B. (2025). Literacy skills through the use of digital STEAM-inquiry learning modules: A comparative study of urban and rural elementary schools in Indonesia. *Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education*, 21(4), em2615. <https://doi.org/10.29333/ejmste/16170>
5. Winarto, Rosana, D., Wibowo, W. S., Rahayu, D. P., Pradana, P. W., & Shidiq, G. A. (2025). The impact of STEM-EfSD games on enhancing students' creative thinking and environmental literacy. *European Journal of STEM Education*, 10(1), 23. <https://doi.org/10.20897/ejsteme/17354>
6. Голубева, А. А. (2022). Использование цифрового образовательного ресурса Joyteka для формирования функциональной грамотности обучающихся. *Успехи современного естествознания*, (6), 5 С.